

**Andijon mashinasozlik instituti
“Axborot texnologiya” kafedrasi, katta
o’qituvchisi Zulfixarov Ilhom
Maxmudovich taqrizi ostida**

**Mamasidiqov Baxodir Qobuljon o’g’li
Andijon Mashinasozlik instituti
“Axborot texnologiya” kafedrasi assistenti
Telefon raqami: +998993631931
E-mail: bahodirmamasidikov6@gmail.com**

O’ZBEKISTONDA BOZOR IQTISODIYOTIGA O’TISHNING YANGI BOSQICHI. IQTISODIYOT VA MATEMATIKA

Annotatsiya: O’zbekistonning bozor iqtisodiyotining o’zgaruvchan holati va undagi sohalarning rivojlanishi haqida ma'lumot beradi. O’zbekiston bozor iqtisodiyoti o’z ichiga o’zgaruvchanlikni va yangi bosqichlarni oladi. Bu tahlil iqtisodiyot va matematika asoslari boyicha muammolarni va ularning hal qilish yo'nalishlarini o'rganish orqali qiyosiy va amaliy ma'lumotlar taqdim etadi.

Kalit so’zlar: Bozor iqtisodiyotini rivojlanish, o’zgaruvchanlik analiz prognozlash, taxlil va matematik modekini yaratish.

НОВЫЙ ЭТАП ПЕРЕХОДА К РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ В УЗБЕКИСТАНЕ. ЭКОНОМИКА И МАТЕМАТИКА

Аннотация: В нем представлена информация об меняющемся состоянии рыночной экономики Узбекистана и развитии ее секторов. Рыночная экономика Узбекистана включает в себя изменения и новые этапы. Этот анализ предоставляет сравнительную и практическую информацию посредством изучения проблем и решений в основах экономики и математики.

Ключевые слова: Развитие рыночной экономики, анализ и прогнозирование волатильности, анализ и создание математической модели.

NEW STAGE OF TRANSITION TO MARKET ECONOMY IN UZBEKISTAN ECONOMICS AND MATHEMATICS

Annotation: Provides information about the changing state of the market economy of Uzbekistan and the development of its sectors. The market economy of Uzbekistan includes changes and new stages. This analysis provides comparative and practical information through the study of problems and directions of their solution in the foundations of economics and mathematics.

Keywords: Development of market economy, volatility analysis and forecasting, analysis and creation of a mathematical model.

O’zbekiston iqtisodiyoti so’nggi yillarda katta o’zgarishlar va yangi yo'nalishlar bilan ko'zga tashlandi. Bu o’zgarishlarning matematik modellar va analizlar orqali tahlili va tushunchalarni oshirishda ahamiyatga ega. XXI asr boshlariga kelib, jahon iqtisodiyotida insoniyat taraqqiyotining avvalgi davrlariga xos bo’lmagan yangi tendensiyalar vujudga keldi. Iqtisodiyotning ma’no mazmuni va xarakteri tubdan o’zgardi. Jahxon bozoridagi iqtisodiy vaziyat murakkablashdi, mamlakatlar o’rtasidagi iqtisodiy munosabatlар tabiatи tubdan o’zgardi. Bunday vaziyatda mamlakatimiz iqtisodiyotini muttazam takomillashib borishini taminlaydigan

mehanizmlarni joriy etish, barqaror iqtisodiyot bilan bog'liq vazifalarni puxta belgilab olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [1].

Bozor – bu sotuvchilar va xaridorlarning tovarlarni pul vositasida ayirboshlash yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlari, ularning o'zaro aloqalaridir. Bozorning obyekti — xilma – xil tovarlar bo'lib, ular tarkibiga iste'mol tovarlari, ishlab chiqarish vositalari, moddiy resurslar, ish kuchi, yer – suv, inshoat, pul kapitali, qimmatbaho qog'ozlar va xizmatlar kiradi. Ishlab chiqarish qanchalik rivojlangan bo'lsa, bozor obyektlari shunchalik ko'p va xilma – xil bo'ladi. Hozirgi rivojlangan mamlakatlar bozor tovar aylanmasiga deyarli 25 mln. xil maxsulot va xizmatlar kelib turadi. Bozorning subyektlari esa xaridorlar va sotuvchilardir. Sotuvchilar – bozordagi tovar va xizmatlarni taklif etuvchi firma, korxona yoki ayrim ishlab chiqaruvchi, ish kuchi, yer – suv, texnika – uskuna, bino – inshoat egasi, pul kapitali va qimmatbaho qog'ozlar, valuta egalaridan iborat bo'lib, ular o'z tovarlarini sotadilar yoki ijaraga beradilar.

Bozor iqtisodiyoti iqtisodiy liberalizm erkinlik yani mulkiy erkinlik va xo'jalik erkinligiga asoslanadi. Bozor iqtisodiyotida yakka tartibda o'z mulki va mablag'iga tayangan holda, korporativ, sherikchilik asosida yer, mulk, inshoatlar ijaraga olish usullari mavjud bo'ladi. Bozordagi narx talabdan kelib chiqqan holda talab-taklif nisbati asosida shakllanadi. Bozor iqtisodiyotiga 2 hil yo'l bilan o'tiladi:

1. Revolyutsion - birdaniga

2. Evolyutsion - sekin asta

O'zbekiston hozirda iqtisodiyotning 2-yo'lini tanlagan. U bosqichma - bosqich o'tib bormoqda. Har qanday jamiyatning taraqqiyoti, jamiyat a'zolarining turmush farovonligi va darajasi ko'p jihatdan ularning iqtisodiy tafakkuriga bog'liq deb aytish mumkin. Zero, ularning xo'jalikni oqilona yurita olish qobiliyati va tejamkorlik xislatlari xo'jalik faoliyatining samaradorligini belgilab beradi. Jamiyat a'zolarining iqtisodiy savodxonligini shakllantirish va oshirish ularning doimo ortib boruvchi ehtiyojlarini qondirish zarurligidan kelib chiqadi. Iqtisodiy bilimlarni ko'proq va chuqurroq o'zlashtirgan, bu bilimlarga tayangan holda fikrlay oluvchi odamning mehnat va tadbirdorlik faoliyati samaradorligi hamisha yuqori bo'ladi. Bunday odamlarning jamiyat, millat taraqqiyotiga qo'shadigan hissasi ham hamisha yuqoridir [3]. O'z navbatida iqtisodiyot matematika bilan uzviy bog'liq va yonma-yon faoliyat yuritadi. Iqtisodiyotni matematikasiz tasavvur qilish qiyin. Iqtisodiyot sohasidagi barcha masalalar o'z navbatida matematik xisob kitoblar bilan yechiladi. Shunday ekan, hozirgi zamonda har bir o'sib kelayotgan yosh avlod vakillari matematikani puxta egallashlari, hisob amallarini to'liq bilishlari mamlakatimiz taraqqiyotida kuchli poydevor bo'lib xizmat qilishini aystsak adashmagan bo'lamiz. Ushbu masalani chuqur anglab etgan yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ham "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantrish chora tadbirlari to'grisidagi" qarorlarini imzolaganlar.

Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantrishning ustuvor yo'naliishlaridan biri sifatida belgilandi. O'tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta'limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi. Ilg'or ilmiy markazlarda faoliyat yuritayotgan vatandosh matematik olimlarning taklif qilinishi va xalqaro ilmiy-tadqiqotlar olib borilishi uchun shart-sharoit yaratildi. Xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan yoshlarimiz va ularning murabbiy ustozlari mehnatini rag'batlantirish tizimi joriy etildi. Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqotlarning o'zaro integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida Talabalar shaharchasida Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining yangi va zamonaviy binosi barpo etildi. Matematika sohasidagi fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmi bir yarim barobarga oshirildi, budget mablag'lari hisobidan superkompyuter, zamonaviy texnika va asbob uskunalar xarid qilindi [2].

Yurtimizga qator mamalakatlardan tashrif buyurgan yosh olimlarning tadqiqotlar uchun kelishi, olib kelinayotgan zamonaviy texnika vositalari, matematikaga ixtisoslashgan qator maktablarning ochilishi, dars tizimlaridagi chuqurlashtirishlar, muktab darsliklarining qayta o'zgartirilgan holda nashr etilishi ham matematika sohasining rivojlanishi uchun yangi bir qadamlardan biri bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz. Matematikaga bo'lgan etibor oshishi

natijsasida o'sib o'rganib kelayotgan yosh avlodning ham bilim olishida o'sish suratlarini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida kelajakda yurtimiz iqtisodiyotining yanada rivojlanishi va rivojlangan mamlakatlar qatoridan yaqin yillar oralig'ida joy olishi uchun qo'yilgan katta qadamlardan biridir. O'z navbatida iqtisodiyotni matematikasiz, matematikani esa iqtisodiyotsiz tasavvur etish qiyin.

Ayniqsa boshlang'ch sinf o'quvchilariga matematikani o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, jamiyat hayotidagi misollar bilan tushuntirish, mavzuni iqtisodiyotga bog'lab o'rgatish o'quvchilarni yoshligidanoq iqtisodiy tejamkorlikka, oilaviy hayotga tayyorlanishi uchun ham asos vazifasini bajaradi. Bu jarayonga o'qituvchining darsga tayyorgarligi va bilim darajasi ham muxim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik tayyorgarligi deyilganda, biz uni ilmiy dunyoqarash asosida matematika o'qitish metodikasi bo'yicha umumiyligi psixologik pedagogik va matematik tayyorgarlik bilan uzviy bog'lanishda tayyorlanishni tushunamiz. Bunday tayyorlanish vazifasiga matematikadan boshlang'ich ta'limga sohasida ma'lum bilim va malakalarni egallash hamda o'quvchilarni o'qitish orqali tarbiyalashni o'zlashtirishi kiradi. Metodik tayyorgarlik boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, uning ta'limga tarbiyaviy faoliyatidan ajralgan holda qaralishi mumkin emas [4].

Har bir mamlakat rivojida bozor munosabatlari katta ahamiyatga ega. Bozor-bu iqtisodiyot demakdir. Iqtisodiyot –bu hisob kitob. Hisob-kitob esa matematikadir. Iqtisodiyot va matematikaning bir bulishi taraqqiyot garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev. 'Yangi o'zbekiston strategiyas' 2021-yil 128-bet
- 2 .Sh M.Mirziyoyev. "Matematika sohasidagi ta'limga sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari" 07.05.2020-yildagi PQ-4708-sон
3. T.Ergashev 'Bozor iqtisodiyoti' 9-bet
4. Zulfixarov I.M, Mamasidikov B.Q Proportional-integral-differential robot control algorithm// European Journal of Research volume 8 issue 8 2023 pages 24-27
5. Mamasidikov. B.Q talabalarda kompleks o'zgaruvchili funksiyalarining integrali va uni hisoblash usullarini shakllantirish// №1 (maxsus son) 2023 yil www.Andmiedu.uz 319-324
6. Mamasidikov. B.Q Matematika ta'limga fanlararo aloqadorlikdan foydalanib o'qitishni tashkil etish// №2 (maxsus son) 2023 yil www.Andmiedu.uz
7. Zulfixarov I.M, Mamasidikov B.Q Oliy ta'limga matematika o'qiyish jarayonini tahlil etishning mantiqiy ketma-ketligi// "Fan va innovatsiya-2023: rivojlanish va ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya, Namangan 22-23.10 2023 pp 375-378
8. Zulfixarov I.M, Mamasidikov B.Q Sun'iy intelektni yaratishda bul algebrasining mantiqiy yo'nalishdagi matematik taxlili// "Qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan foydalanishning dolzarb muammolari, energiya tejamkor qurilmalarning samaradorligini oshirishda sun'iy intelekt va raqamli texnologiyalarni tadbiq etish" mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjuman 18-19.09 2023 pp. 346-348
9. Mamasidikov B.Q Yuqori tartibli determinantni hisoblashni qulay usullari "Science and Education" scientific journal / www.openscience.uz Oktober 2023 / volume 4 ISSUE 10. 8-13
1. Sh.M.Mirziyoyev. 'Yangi o'zbekiston strategiyas' 2021-yil 128-bet

- 2 .Sh M.Mirziyoyev. "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari" 07.05.2020-yildagi PQ-4708-son
3. T.Ergashev 'Bozor iqtisodiyoti' 9-bet
4. Zulfixarov I.M, Mamasidikov B.Q Proportional-integral-differential robot control algorithm// European Journal of Research volume 8 issue 8 2023 pages 24-27
5. Mamasidikov. B.Q talabalarda kompleks o'zgaruvchili funksiyalarning integrali va uni hisoblash usullarini shakllantirish// №1 (maxsus son) 2023 yil www.Andmiedu.uz 319-324
6. Mamasidikov. B.Q Matematika ta'limida fanlararo aloqadorlikdan foydalanib o'qitishni tashkil etish// №2 (maxsus son) 2023 yil www.Andmiedu.uz
7. Zulfixarov I.M, Mamasidikov B.Q Oliy ta'limda matematika o'qiytish jarayonini tahlil etishning mantiqiy ketma-ketligi// "Fan va innovatsiya-2023: rivojlanish va ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya, Namangan 22-23.10 2023 pp 375-378
8. Zulfixarov I.M, Mamasidikov B.Q Sun'iy intelektni yaratishda bul algebrasining mantiqiy yo'nalishdagi matematik taxlili// "Qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan foydalanishning dolzarb muammolari, energiya tejamkor qurilmalarning samaradorligini oshirishda sun'iy intelekt va raqamli texnologiyalarni tadbiq etish" mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjuman 18-19.09 2023 pp. 346-348
9. Mamasidikov B.Q Yuqori tartibli determinantni hisoblashni qulay usullari "Science and Education" scientific journal / www.openscience.uz Oktober 2023 / volume 4 ISSUE 10. 8-13